

TARBIYAGA TA'SIR ETUVCHI FAKTORLAR VA TARBIYANI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

Turemuratova Aziza Begibaevna

Qoraqalpoq davlat universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrası assistenti.

azizaturemuratova85@gmail.com

Turg'anbaev Elmurat Minbay uli

Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi.

Talasbaev Jenis Erpolatovich

Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17449512>

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda tarbiyaning zamonaviy metodlari, tarbiyani shakllantirish va yoshlarga tarbiya berish bosqichlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Buyuk mutafakkirlarimizning tarbiya haqidagi fikrlari shuningdek tarbiyani shakllantirishning metodlari haqida sharhlar keltirib o'tilgan. Shaxsni tarbiyalash orqali uning dunyoqarashini rivojlantirish, ma'naviy yetuk, komil inson sifatida ta'riflab berilgan. Tarbiyaning zamonaviy modellarida o'qituvchi va o'quvchining, farzand tarbiya olgan oila davrasiga uzviy bog'liq hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Tarbiya, tarbiya metodlari, oila, ta'lim, ma'naviy yetuklik, komil inson, tarbiya faktorlari.

FACTORS INFLUENCING UPBRINGING AND STAGES OF UPBRINGING FORMATION

Abstract. This study provides information about modern methods of upbringing, the stages of upbringing and the upbringing of young people. The thoughts of our great thinkers about upbringing, as well as comments on the methods of upbringing, are given. The development of a person's worldview through upbringing is described as a spiritually mature, perfect person. In modern models of upbringing, the relationship between the teacher and the student is inextricably linked to the family circle in which the child is raised.

Keywords: Upbringing, methods of upbringing, family, education, spiritual maturity, perfect person, upbringing factors.

ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ВОСПИТАНИЕ И ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. В данном исследовании представлена информация о современных методах воспитания, этапах воспитания и воспитании молодёжи. Приводятся размышления наших великих мыслителей о воспитании, а также комментарии к методам воспитания. Развитие мировоззрения человека через воспитание описывается как формирование духовно зрелой, совершенной личности. В современных моделях воспитания отношения между учителем и учеником неразрывно связаны с семейным кругом, в котором воспитывается ребёнок.

Ключевые слова: Воспитание, методы воспитания, семья, образование, духовная зрелость, совершенный человек, факторы воспитания.

Kirish

Insoniyat tarixining barcha davrlarida tarbiya masalasi jamiyat hayotida muhim o‘rin egallab kelgan. Har bir xalq o‘zining milliy qadriyatlari, urf-odatlar va tarixiy tajribasi asosida yosh avlodni tarbiyalashning o‘ziga xos tizimini yaratgan. Tarbiya – bu shaxsning ma’naviy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan shakllanishiga xizmat qiluvchi uzluksiz jarayondir. Buyuk mutafakkirlar, allomalar va pedagoglar bu jarayonning mohiyatini chuqur o‘rganib, inson kamoloti uchun tarbiyaning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab o‘tganlar.

Tarbiya — bu insonning ma’lum maqsadga yo’naltirilgan holda shakllanishini ta’minlovchi ijtimoiy jarayon bo‘lib, u jamiyat ehtiyojlari, maqsad va g‘oyalari asosida amalga oshiriladi. Tarbiya jarayoni shaxsning xulq-atvori, dunyoqarashi, axloqiy me’yorlarga amal qilish darajasini belgilaydi. Abu Nasr Forobiy “Fozil shahar aholisining fikrlari” asarida shunday degan edi: “Agar inson o‘z tabiati va fe’l-atvori jihatidan yaxshi fazilatlarga ega bo‘lsa, ammo tarbiya topmasa, unda bu fazilatlar rivojlanmaydi.” Buyuk mutafakkirlar – Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Abdulla Avloniylar ham tarbiyani inson kamolotining poydevori sifatida talqin etgan. Avloniy esa “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot masalasidir” deya tarbiyaning millat hayotidagi o‘rnini chuqur ifodalagan. Bu fikr tarbiyaning inson shaxsini kamolga yetkazishdagi o‘rni naqadar muhim ekanini ko‘rsatadi. Tarbiya jarayoniga ko‘plab omillar, ya’ni faktorlar ta’sir etadi. Ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: Oila – insonning birinchi tarbiya maskanidir. Farzand ilk bor mehr, g‘amxo‘rlik va odobni oilada o‘rganadi. Ota-onaning shaxsiy namunasi, muomala madaniyati va axloqiy qadriyatlari bolaning ruhiy olamiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Hadisi sharifda aytilganidek: “Har bir bola fitratda tug‘iladi, uni yahudiy, nasroniy yoki majusiy qiluvchi ota-onasidir.” Bu hadis oilaning tarbiyadagi asosiy rolini aniq ifodalaydi. Maktab, kollej, litsey va oliy ta’lim muassasalari tarbiya jarayonining keyingi bosqichini tashkil etadi. Bu bosqichda bola shaxs sifatida shakllana boshlaydi, unda mehnatsevarlik, javobgarlik, do‘stlik, vatanga sadoqat kabi fazilatlar rivojlanadi. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchining shaxsiga, uning kasbiy mahorati va insoniy fazilatlariga bog‘liq. Jamiyatdagi madaniy muhit, ommaviy axborot vositalari, internet, do‘stlar davrasi va ijtimoiy tarmoqlar ham yoshlar tarbiyasiga bevosita ta’sir etadi. Agar ijtimoiy muhit sog‘lom g‘oyalar, milliy qadriyatlar va ezgulik ruhida bo‘lsa, shaxsning ma’naviy yetukligi shakllanadi. Aks holda esa, bu omillar salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tarbiya tizimi xalqning tarixiy an’analari, urf-odatlar va diniy e’tiqodlari bilan chambarchas bog‘liq. Imom G‘azzoliy shunday yozgan: “Yosh bolani tarbiya qilmaslik – uni buzishga tengdir.” Shu bois, diniy qadriyatlar asosida bolalarga halollik, sabr, hayo, ota-onaga hurmat, Vatanga muhabbat singari tuyg‘ularni singdirish muhim ahamiyatga ega. Shaxs tarbiyasiga tabiiy omillar – iqlim, salomatlik holati, jismoniy imkoniyatlar ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli tarbiya jarayoni insonning individual xususiyatlarini e’tiborga olgan holda olib borilishi lozim. Tarbiyani shakllantirish uzluksiz jarayon bo‘lib, u inson hayotining barcha davrlarini qamrab oladi. Tarbiya metodlari – bu tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan usullar majmui bo‘lib, ular shaxsni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Eng samarali metodlarga quyidagilar kiradi: Suhbat va tushuntirish metodi. Tarbiyaviy suhbat orqali bolalarda axloqiy qarashlar, ma’naviy qadriyatlar shakllanadi. Rag‘batlantirish va jazolash metodi. To‘g‘ri va o‘rinli tarzda qo‘llanilganda, bu metod shaxsda mas’uliyat va intizomni kuchaytiradi. Shaxsiy namuna.

Tarbiyachi o'zi o'rnak bo'lmasa, so'zining ta'siri bo'lmaydi. Konfutsiy shunday degan edi: "Yaxshi tarbiya berish uchun avvalo o'zingni tarbiya qil." Jamoa orqali tarbiya. Guruh yoki jamoa doirasida olib borilgan tarbiya shaxsda ijtimoiy faollik va hamkorlikni rivojlantiradi.

Mehnat orqali tarbiya. Mehnat insonni tarbiyalaydi, sabr, matonat va javobgarlikni singdiradi.

Tarixiy manbalarda tarbiya masalasi ko'plab allomalar tomonidan chuqur o'rganilgan.

Masalan: Abu Ali Ibn Sino ta'lim va tarbiyani bir-biridan ajratib bo'lmasligini ta'kidlab, "Tarbiyasiz ta'lim – egasiz xazina kabidir", degan. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida inson kamolotini halollik, adolat, bilim va sabr bilan bog'lagan. Ahmad Donish esa yoshlarni ilmga, mehnatsevarlikka va Vatanga sadoqatga undagan. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiyani "hayot-mamot masalasi" deb atab, millat kelajagi tarbiyaga bog'liqligini ta'kidlagan. Ma'naviy yetuklik – bu insonning axloqiy, ruhiy va intellektual barkamollikka erishganlik darajasidir. Tarbiya bu jarayonning asosi hisoblanadi. Ma'naviy barkamol inson jamiyatda ijobiy o'zgarishlar keltirib chiqaradi, boshqalarga o'rnak bo'ladi. Tarbiya orqali inson nafaqat bilim oladi, balki o'zini anglash, boshqalar bilan to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rganadi.

Bugungi globallashtirish davrida tarbiya jarayoniga yangicha yondashuvlar talab etiladi.

Internet, raqamli texnologiyalar va axborot oqimi yoshlar dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, zamonaviy tarbiya tizimi: axborot madaniyatini shakllantirish; milliy g'oyalar asosida vatanparvarlikni kuchaytirish; oila va maktab hamkorligini mustahkamlash; shaxsga yo'naltirilgan pedagogik metodlarni qo'llash kabi yo'nalishlarda takomillashtirilmoqda. Zamonaviy pedagogika kompetensiyaviy yondashuvni tarbiya jarayonining asosiy modeli sifatida qabul qilmoqda. Bu yondashuvda bilim emas, balki amaliy ko'nikma, qadriyat va munosabatlar markaziy o'rinda turadi. Kompetensiyaviy yondashuvga ko'ra, tarbiya natijasi shaxsning hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yurita olishi bilan o'lchanadi. Tarbiyaning mazmuni, maqsadi va shakllanish bosqichlari asrlar davomida insoniyatni o'ylantirib kelgan eng muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlardan biridir. Hozirgi kunda tarbiya nafaqat an'anaviy axloqiy qadriyatlarni uzatish vositasi, balki shaxsning ijodiy, intellektual va ma'naviy rivojlanishini ta'minlovchi strategik jarayon sifatida qaraladi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar tarbiyani inson shaxsini shakllantiruvchi dinamik tizim sifatida o'rganmoqda. Bu tizimda biologik, psixologik, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy omillar o'zaro ta'sirda bo'ladi. Tarbiyaning samaradorligi uni amalda to'g'ri tashkil etish, metodlarni sharoit va yosh xususiyatlariga moslashtirish bilan belgilanadi.

Yoshlarning dunyoqarashi shakllanishida metodlarning amaliy qo'llanilishi – nazariy bilimlarni hayotiy tajriba bilan uyg'unlashtirish, ma'naviy qadriyatlarni kundalik faoliyatda mustahkamlashga yordam beradi. Shunday qilib, yoshlarni dunyoqarashini kengaytirishda tarbiya metodlarining ahamiyati beqiyosdir. Chunki tarbiya insonni nafaqat bilimli, balki ma'naviy barkamol, axloqan toza, ijtimoiy faol shaxs sifatida voyaga yetkazadi. Tarbiya metodlarining ilmiy, milliy va ma'naviy asoslarda uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilishi esa yosh avlodni har tomonlama komil inson darajasiga olib chiqadi. Bu esa o'z navbatida, yurt taraqqiyotining eng muhim omili hisoblanadi.

Tarbiyaviy muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sirlar tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. So'ngra bolani qurshab turgan hamma narsa ham uning rivojlanishida haqiqiy muhit hisoblanavermaydi. Har bir bola uchun rivojlanishning betakror va mutlaqo individual vaziyati vujudga keladiki, biz uni yaqin atrof-muhiti deb ataymiz. Ayni chog'da u nisbatan mustaqillikni bildiradi. Mikromuhit ham ijtimoiy muhitning bir qismi bo'lib, oila, maktab, do'stlar, tengqurlar, yaqin kishilar va shu kabi elementlardan tashkil topadi. Bolani qurshab turgan muhitda ijobiy va salbiy hodisalar mavjud bo'ladi. Shaxs atrof-muhit ta'sirini o'ziga singdiribgina emas, balki unga qarshilik ko'rsatib ham shakllanadi. Rivojlanishning shart-sharoitlari bolaning o'zi ularga nisbatan qay yo'sinda turgani va uning bu sharoitlarda qay tarzda tarkib topishiga bog'liq bo'lmagan holda shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsata olmaydi.

Masalan, shu narsa ayon bo'ladiki, agar bola o'rtoqlari orasida hurmatga ega bo'lsa, agar unga mas'uliyatli topshiriqlar ishonib topshiriladigan bo'lsa, bu holda unda unga ishonchning, faollikning, til topishib ketishining rivojlanib ketishiga yordam beradi, yoki aksincha bo'ladi, kishilar va shu kabi elementlardan tashkil topadi. Bolani qurshab turgan muhitda ijobiy va salbiy hodisalar mavjud bo'ladi. Shaxs atrof-muhit ta'sirini o'ziga singdiribgina emas, balki unga qarshilik ko'rsatib ham shakllanadi. Rivojlanishning shart-sharoitlari bolaning o'zi ularga nisbatan qay yo'sinda turgani va uning bu sharoitlarda qay tarzda tarkib topishiga bog'liq bo'lmagan holda shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsata olmaydi. Bolani o'rab turgan muhit mehnat va til oqibati natijasida tarbiya vositasiga aylanadi. Bunda muhitning ta'siri stixiyali ekanligini hisobga olmoq lozim. Shu sababli inson kamolotida ta'lim va tarbiyaning yetakchilik qilishiga imkon berish kerak.

Xulosa

Tarbiya inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, uning mohiyati jamiyatning ma'naviy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita bog'liqdir. Har bir avlodni komil inson sifatida voyaga yetkazish – ota-ona, pedagog va butun jamiyatning burchidir. Buyuk mutafakkirlarning asarlarida tarbiya insonni inson qiluvchi, jamiyatni esa barkamol etuvchi kuch sifatida ta'riflanadi.

Shunday ekan, har bir pedagog, ota-ona va jamiyat a'zosi yosh avlodning tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondashmog'i, ma'naviy yetuk, vatanparvar va komil insonni shakllantirishga intilmog'i zarur. Chunki tarbiya – bu kelajak poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Turemuratova, Aziza, Rita Kurbanova, and Barno Saidboyeva. "EDUCATIONAL TRADITIONS IN SHAPING THE WORLDVIEW OF YOUNG PEOPLE IN FOLK PEDAGOGY." *Modern Science and Research* 2.10 (2023): 318-322.
2. Jarilkapovich, Matjanov Aman. "Program Technology for Choosing an Effective Educational Methodology Based on Modern Pedagogical Research in The Educational System." *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS* 6.02 (2025): 30-33.
3. Jarilkapovich, Matjanov Aman. "USE OF PEDAGOGICAL METHODS BASED ON THE MODERN EDUCATIONAL PROGRAM TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF EDUCATION." *European International Journal of Pedagogics* 4.06 (2024): 26-33.
4. Turemuratova, Aziza, Amina Turganbayeva, and Kundiz Allamberganova. "PSIXOLOG TRENERING KASBIY KO'NIKMALARI VA PSIXOLOGIK SALOHIYATINI

- OSHIRUVCHI AMALIY TRENINGLAR." *Modern Science and Research* 4.4 (2025): 884-890.
5. Turemuratova, A. B. "TA'LIMDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOLLOBORATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI." *Inter education & global study* 3.4 (2025): 242-250.
 6. Begibaevna, Turemuratova Aziza, Kenjayeva Marhabo Ahmatjonovna, and Jumanioyozova Nigora Baxtiyorovna. "Formation of Students' Collaborative Skills Through Group Training Based on Multi-Vector Pedagogical and Psychological Approaches in Higher Education." *International Journal of Pedagogics* 5.04 (2025): 24-27.
 7. Turemuratova, A., and I. Ostonakulov. "USING PROVERBS AS A WAY OF FOLK PEDAGOGY TO IMPROVE THE KNOWLEDGE OF YOUTH." *International Journal of Intellectual Cultural Heritage* 2.6 (2022): 60-63.
 8. Begibaevna, T. A. "USE OF EDUCATIONAL TRADITIONS OF FOLK PEDAGOGY IN FORMING YOUTH WORLD VIEW." *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)* 8.6 (2023): 266-268.
 9. Туремуратова, А. Б. "ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ В ФОРМИРОВАНИИ МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЕЖИ." *Мировая наука* 6 (75) (2023): 125-129.
 10. Jarilkapovich, Matjanov Aman. "The Role of Modern Education and The Teacher's Pedagogical Skills in The Application of Pedagogical Teaching Methods." *International Journal of Pedagogics* 5.04 (2025): 266-268.
 11. Kurbanova, R. J., and B. E. Saidboeva. "MAKTAB VA OILADA ESTETIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNING AKSIOLOGIK DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH." *Inter education & global study* 9 (2024): 114-121.
 12. Jarasovna, Kurbanova Rita. "The Role of National Values in Shaping the Aesthetic Worldview of Schoolchildren." *International Journal of Pedagogics* 5.03 (2025): 55-58.
 13. Muratbayevna, Dauletova Gozal, and Madaminova Nargiza Qurbanbayevna. "BOLANING RIVOJLANISH DAVRI PSIXOLOGIYASI." *Scientific Impulse* 1 (2022): 33-35.
 14. Ilyasova, Gulnaz, Arman Sipatdinov, and Venera Mambetiyarova. "OILA SHAXS IJTIMOIYLASHUVIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI MUHIM OMIL SIFATIDA." *Modern Science and Research* 3.12 (2024): 601-604.
 15. Turumbetova, Zamira, and Dinara Abdiraxmanova. "INFLUENCE OF THE SOCIAL ENVIRONMENT ON THE BEHAVIOR OF PRESCHOOL CHILDREN." *Modern Science and Research* 3.5 (2024): 1196-1199.
 16. Turemuratova, Aziza, Elvira Sultanova, and Benezera Orazova. "THE ROLE OF PEDAGOGICAL SKILLS IN EDUCATION AND USE OF NEW METHODS IN TEACHING PRINCIPLES." *Models and methods in modern science* 2.11 (2023): 134-140.
 17. Jubatqan, Sagindikov. "QUESTIONS OF SPIRITUAL COMMUNICATION OF RURAL WORKERS." *Special Education* 2.43 (2022).